

Hamkorlikka tayangan mustahkam aloqa

Innovatsion g'oyalar kuchi hamkorlik zamiriga qurilgan aloqalarning rivojlanishiga bog'liqligi oynadek ravshan. Bu borada so'z ketganda, memorandum va xalqaro konferensiyalarning roli katta bo'ladi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi tajriba almashuvlarning suv va qishloq xo'jaligining turli tarmoqlarida ham ahamiyati katta. Xuddi shunday quvonchli va samaradorlikka qaratilgan hamkorlikka e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

14 sentyabr kuni AQSHda xizmat safarida bo'lib turgan TIQXMMI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori T.Sultanov AQSHning Kaliforniya universiteti (Devis) global ishlar bo'yicha prorektor va kansler yordamchisi Yoanna Regulska ta'lim, ilm-fan, ilmiy va amaliy konferensiyalar, talaba va professor o'qituvchilar o'rtasida almashinuv, shuningdek, xalqaro hamkorlik ishlarini kelgusida istiqbolli rejalar asosida amalga oshirish va yo'lga qo'yish maqsadida hamkorlik kelishuvini imzoladilar.

Bugungi kunda universitetning qishloq va suv xo'jaligi sohasida olib borayotgan ilmiy ishlari va ta'lim tizimidagi islohotlari yuqori baholanib kelinmoqda. Mazkur universitet Amerika qo'shma shtatlarida yuqori darajada turuvchi OTM hisoblanib, u AQSH universitetlari orasida 46, dunyo miqyosida QS reyting tizimi bo'yicha 35-o'rinni egallaydi.

Bunday hamkorlik kelishuvlari har ikki davlat o'rtasida nafaqat oliy ta'lim tizimi yohud ilm-fan sohasidagi aloqalarni mustahkamlashga balki do'stlik, millatlararo totuvlik, madaniy va tarixiy jabhalarda ham aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniyatini beradi.



Institut xalqaro aloqalar bo'limi rahbari Ilhomjon Abdurahmonov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov